

INGLIZ TILINI O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA  
O'QITISHNING AHAMIYATI

*Ishmatova Sevinch Abduxoliq qizi*

*Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti*

*Pedagogika yo'nalishi*

*Email:ishmatovasevinch@gmail.com*

*Tel: +998 88 533 37 76*

*Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich-*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*

*o'qituvchi [u.shomurotov@dtpi.uz](mailto:u.shomurotov@dtpi.uz)*

*+998915107420*

**Annatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida ingliz tilini o'qitishda innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning erkin fikrlashi, nutqiy teranliklari, hozirjavobliklari, umumiy o'rta ta'lim maktablari ingliz tili o'qituvchisining innovatsion metodlardan foydalanish orqali ta'lim sifatini oshirish yo'llari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** maktab, innovatsiya, pedagog-texnolog, metod, ta'lim, tarbiya, bilim, ko'nikma, kreativ, tasnif, innovatsiya, obyektiv.

**Аннотация:** В данной статье инновационные подходы к преподаванию английского языка в общеобразовательных школах улучшают свободомыслие учащихся, глубину речи, а также текущую ответственность, учитель английского языка общеобразовательной школы может повысить качество образования за счет использования инновационных методов. объясняются.

**Ключевые слова:** школа, инновация, педагог-технолог, метод, образование, обучение, знание, умение, творческий, классификация, инновация, цель.

**Annotation:** In this article, innovative approaches to teaching English in general education schools improve the students' free thinking, speaking depth, and current responsibility, the English language teacher of general secondary schools can improve the quality of education through the use of innovative methods. are explained.

**Key words:** school, innovation, pedagogue-technologist, method, education, training, knowledge, skill, creative, classification, innovation, objective.

**Kirish.** Bugungi kunda yosh avlodning xorijiy tillarni, ayniqsa ingliz-tlini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortib bormoqda. Shu boyis, umumta'lim maktablarida bu tilni chuqurroq o'rgatish uchun pedagog xodimlardan innovatsion usullardan keng foydalanish talab etilmoqda Shu sababdan, 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Chet

tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi hamda 2013—2014 yildan boshlab umumta'lim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni uzluksiz o'rgatishning joriy etilishi buning yaqqol isbotidir.

Ma'lumki hozirgi kunda mamlakatimizda chet tillarini o'rganishga katta e'tibor qaratilayapti. Biz imorat qurushda uning poydevoriga katta etibor qaratsak, imoratning shunchalik mustahkam va sizga yuz yillar mobaynida xizmat ko'rsata olishi shunchalik kafolatlanadi. Bizning oliy maqsadimiz esa yurt boshimizning chet tillarini o'rganishga qaratilgan bir qancha qaror va farmoyishlarining ijrosini ta'minlagan holda o'sib kelayotgan yosh nihol, yurtimiz kelajaglarini chet tillari bo'yicha bilimlarini yanada mustahkamlashdan iborat. “Xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha eng yaxshi maktab” tanlovining respublika bosqichi yakuniy natijalariga ko'ra, Namangan (7-maktab, 1-o'rin), Toshkent (145-maktab, 2-o'rin) hamda Buxoro (1-maktab, 3-o'rin) viloyatlaridagi 3 ta maktab g'oliblikni qo'lga kiritgan. Shu maktablarning 70 nafar o'quvchi va 14 nafar o'qituvchisi Angliyaga yuborildi. Xorijiy tilni o'rganish har bir yoshlarimizning [hayotdagi] keyingi bosqichida ham juda ahamiyatli. Ya'ni raqobatbardosh, xalqaro arenalarda O'zbekiston bayrog'ini ko'tarishi uchun ilm-fanda, qaysi yo'nalishda bo'lmasin, til[ni o'rganish] juda muhimdir.

**Asosiy qism.** Kichik yoshli bolalarda til o'rganishga bo'lgan xohish-istak juda yuqori, ayniqsa hozirgi axborot kommunikatsiya vositalari bilan bu holat yuqori ko'rstikchlarni ko'rsatmoqda. Davlatimiz tomonida maktablarda yaratilgan shart-sharoitlar, o'quv xonalarining zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanganligi, yosh bilimli kadrlar bilan ta'minlanganligi, maktab darslaridan tashqari mustaqil shug'illanish uchun barcha sinflar uchun online telekanallardagi televizion online darslarning tashkil etilganligi tahsinga sazovordir. Ingliz tilini o'itishda o'quvchilarga avval grammatik qoidalar tushuntirilib so'ngra misollar orqali mustahkamlanadi. Bu usul ko'pincha yuqori sinf o'quvchilari uchun foydali. Masalan zamonlar, predloglar, artikllar yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'lum termenlar bo'lib ular gaplarda ega, kesim aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi gap bo'laklarini qo'yib gap tuza olishadi grammatikada asosan ikki xil usuldan unumli foydalaniladi

- Inductive
- Deductive

Induktiv usulda o'quvchilarga avval grammatik qoidalar tushuntirilib so'ngra misollar orqali mustahkamlanadi. Bu usul ko'pincha yuqori sinf o'quvchilari uchun foydali. Masalan zamonlar, predloglar, artikllar yuqori sinf o'quvchilari uchun ma'lum termenlar bo'lib ular gaplarda ega, kesim aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol kabi gap bo'laklarini qo'yib gap tuza olishadi. Deduktiv usulda avval ma'lum o'yinlar, mashqlar orqali mavzu tanishtirilib, so'ngra qoidaga bog'lab tushuntiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ega, kesim, fe'l va boshqa birliklar haqida ma'lumotga ega bo'lmaganliklari sababli ularga o'yinlar qo'shiqlar orqali mavzu tushuntirish samaraliroq . Chet til

o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilan chambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", "tog'ri", "qiyosiy", "aralash" deb atash qabul qilingan. Chet tillarini o'rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o'zga madaniyat ta'limiy boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o'z madaniy hayotiga tadbiiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o'rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta'lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo'lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi. Psixologlar fikriga ko'ra yoshi katta insonlarga nisbatan bolalarda yangilikka qiziqish, o'qish, o'rganishga bo'lgan ishtiyoq 70-80% kuchliroq bo'lar ekan. Kundalik hayotimizda ham bajara ololmaydigan vazifalarni ham bolalar ogohlantirishlarga qaramasdan bajarib ko'rishga harakat qilishadi. Bir xillikdan juda tez zerikishadi shu sababli pedagog kadrlardan yangicha uslublarda, noan'anaviy tarzda darslarni tashkil etish, o'rganilayotgan xorijiy tilning muhitini to'liq yarata olish talab etiladi.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga ko'plab zamonaviy texnologiyalar va metodlar kirib kelmoqda. Ammo, ulardan qay tarzda, qaysi paytda, qanday mavzuda foydalanish bu o'rgatuvchining zukkoligi, izlanuvchanligiga, dars - mashg'ulotlarni ham qiziqarli, ham ilmiy ma'lumotga boy tarzda tashkil etishiga bog'liq deb o'ylayman.

**Xulosa.** Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, umumta'lim maktablarida ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda , ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o'quvchida bilimga ishtiyoq

uyg'otadi. O'quvchi darslarga puxta hozirlik ko'rishga intiladi. Bu esa o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol sub'yektlariga aylantiradi. Ta'lim tizimi o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-maydagi PQ-5117-SON qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi 465-1-sonli "Ta'lim tog'risida"gi qonunini.
3. Safaeva F.N., Umumiy o'rta ta'lim maktablari va kasb-hunar kollejlari ingliz tili grammatikasi va uni rivojlantirish masalalari, Molodoy uchenniy, T., 2016, - 112 b.
4. Jamol Jalolov chet til o'qitish metodikasi, O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi toshkent - 2012
5. Zaripov R.A. O'zbek maktablarida chet tili o'qitish metodikasining asosiy yo'nalishlari, O'qituvchi-1979